



## «FLIPPED CLASSROOM» MODELIDAN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISH METODIKASI

**Murodaliyeva Muattarxon Umarjonovna**

*Qo'qon davlat pedagogika instituti magistranti*

*Ilmiy rahbar: t.f.n, professor, H.I.Xonboboyev*

**Annotatsiya.** Zamonaviy dunyoda masofaviy talimning o'rni toboro rivojlanib bormoqda. Aralash ta'lism esa online hamda an'anaviy talimning o'zaro aralashgan holati hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanayotgan bir payta online hamda an'anaviy ta'limning aralashuvi toboro dolzarb sohalardan biriga aylangan. Flipped classroom modeli o'quvchi va talabalarda o'z faoliyatini tashkil qilishda yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Blended learning (aralash o'qitish) tushunchasi, aralash ta'lism modeli imkoniyatlari, blended learning tizimining o'ziga xosliklari, flipped classroom modeli va uning imkoniyatlari.

**Kirish.** “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o'qitishning zamonaviy shakl, metod va texnologiyalarini qo'llash, ta'lism jarayonida tayanch bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni doimiy nazorat qilib turish, o'quvchilar qobiliyatiga qarab kasbiy yo'naltirish ishlarini olib borish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'quvchilar masofadan turib yangi bilimlarni egallashi, doimiy ravishda o'z ustida ishlashi uchun tizim yaratish va uni yo'lga qo'yish<sup>118</sup> maqsadida aralash ta'lism modellaridan foydalanilmoqda. Aralash ta'lism modellaridan foydalanish jahon miqyosida ham o'z ahamiyatiga ega. Jumladan, AQSH, Avstraliya, Hindiston, Kanada, Finlandiya mamlakatlarida aralash ta'lism modellaridan foydalish sezilarli darajada ta'lism sifatini oshirishda foyda bermoqda. AQSHning Texas shtatidagi Round Rock Mustaqil maktabida aralash ta'lismning “Face-to-Face Driven” modelidan, Kaliforniyadagi boshlang'ich maktablarida “Rotation” modelidan, AQSHning Texas shtatidagidagi IDEA Davlat maktablari aylanish ya'ni “Rotation” modelidan, AdvancePath Akademiyasida aralash ta'lismning moslashuvchan ya'ni “Flex” modelidan, Los-Anjelesdagi ICEF Vista Elementary akademiyasida “Online Lab” modelidan foydalanish sezilarli darajada talaba va o'quvchilarga yordam bermoqda.

**Metodlar.** Aralash ta'linda ta'lismning kunduzgi shaklidagi an'anaviy usul hamda masofaviy ta'lismning turli texnologiyalaridan foydalanish mumkin. Xorij amaliyotida aralash ta'lismning 6ta modeli belgilangan

1. “Face to Face Driver” modeli. O'quv dasturining ahamiyatga bog'liq qismi bevosita o'qituvchi yordamida o'rganiladi. Asosiy dasturga qo'shimcha sifatida elektron ta'lism ishlatalidi, jumladan, elektron resurslar bilan ishslash dars davomida kompyuterlarda tashkil etiladi.

2. “Rotation”, “Flipped learning” modeli. O'quv vaqtি individual elektron ta'lism va o'qituvchi bilan birgalikda sinfda tashkil etilgan ta'limga taqsimlanadi. Bunda nazariy

<sup>118</sup> M. R. Fayziyeva, D. M. Sayfurov. Informatika va axborot texnologiyalari. O'qituvchi kitobi: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun o'quv metodik qo'llanma, Toshkent: Tasvir, 2020., 4-bet

materiallar individual tarzda masofadan turib o‘qiladi va auditoriyada o‘qituvchi hamkorligida o‘zaro muzokaralar asosida material mustahkamlanadi.

3. “Flex” modeli. O‘quv dasturining katta qismi elektron ta’lim orqali o‘zlashtiriladi. O‘qituvchi har bir ta’lim oluvchini masofadan kuzatib boradi. Mavzu tarkibidagi murakkab tushunchalar bo‘yicha maslahatlarni kichik guruhlarda, individual shaklda tashkil etadi.

4. “Online Lab” modeli. O‘quv dasturi elektron ta’lim talablariga mos ravishda kompyuter texnikasi bilan ta’minlangan auditoriyalarda qoidaga asosan tashkil etiladi. Onlayn ta’lim o‘qituvchi kuzatuvi asosida olib boriladi.

5. “Selfbrender” modeli. Model Amerikaning oliv ta’lim muassasalari uchun an’anaviy hisoblanadi. Talabalar mustaqil tarzda asosiy ta’limga qo’shimcha ravishda kurslarni tanlaydi.

6. “Online Driver” modeli. O‘quv dasturining asosiy qismi axborot ta’lim muhitidagi elektron resurslar yordamida o‘zlashtiriladi.

**Natijalar.** Ma’ruza mashg‘ulotlarini tashkil etish uchun aralash ta’limning “Flipped learning” modelini qo’llash bo‘yicha fikr yuritamiz. Flipped learning yoki “ag‘darilgan ta’lim” aralash ta’limning bir shakli bo‘lib, ta’lim oluvchilarning passiv, zerikarli harakatini yangi ko‘rinishga o‘tkazuvchi ta’lim konsepsiyasidir. Ushbu ta’limda ta’lim oluvchi uy vazifasi sifatida video-ma’ruzani tarmoq orqali ko‘radi va nazariy materialni mustaqil o‘zlashtiradi, auditoriyada esa o‘qituvchi bilan hamkorlikda amaliy topshiriqlarni bajaradi.


Flipped learning modelida darslarni tashkil etish. Ushbu model yordamida darslarni tashkil etishda o‘qituvchi bir nechta video-ma’ruzalarni tayyorlaydi va ularni tarmoqqa yoki biror-bir tizimga joylashtiradi, ta’lim oluvchilar esa darsdan tashqari vaqtida o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan video-ma’ruzani ko‘radi va mavzuni o‘zlashtiradi. Bu esa video-ma’ruzani shoshilmassdan, takroran ko‘rish imkonini beradi. Agar uyda internet bilan ishlashga imkon bo‘lmasa, u holda ta’lim muassasalarida ushbu imkoniyat bilan ta’milanadi. Dars davomida esa mavzu bo‘yicha yuzaga kelgan savollar, fikrlar haqida o‘qituvchi bilan muzokara qiladi. Olingan bilimni takomillashtirish uchun turli nazorat topshiriqlarini bajaradi. Quyida o‘qitishning an’anaviy shakli va Flipped learning modelida talaba faoliyati ko‘rsatilgan (1-jadval).

1-jadval

**O‘qitishning an’anaviy va Flipped learning shakllarida talaba faoliyati**

<i>O‘qitishning an’anaviy shakli</i>			
<i>Mashg‘ulot davomida</i>		<i>Auditoriyadan tashqari vaqtida</i>	
Nazariy materialni o‘zlashtirish	Berilgan vazifani bajarish	Berilgan vazifani bajarish	
<i>Flipped learning shakli</i>			
<i>Auditoriyadan tashqari vaqtida</i>		<i>Mashg‘ulot davomida</i>	
Nazariy materialni o‘zlashtirish	Berilgan vazifani bajarish	Bilimni takomillashtirish	Berilgan vazifani bajarish

Flipped classroom modeli. Ushbu modelning shiori "onlayn o'rganish, oflayn dastur". O'zgartirilgan sinfda ma'ruzalar va amaliy uy vazifalari elementlari o'zgartiriladi. Talabalar darsdan oldin uyda yangi mazmunni o'rganadilar va darsdagi vaqt faol o'rganish va yangi o'rganilgan ko'nikmalarni qo'llashga bag'ishlanadi. Bu munozaralar, amaliy tadqiqotlar yoki loyiha ishi shaklida amalga oshirilishi mumkin. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarni savollarga javob berish va kurs tushunchalarini qo'llashda qo'llab-quvvatlash orqali yo'naltirishdir.



Flipped learning modeli asosida yaratilgan «Flipped learning for 9» nomli mobil ilova orqali umumta'lif maktabi 9-sinf o'quvchilarida Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda tajriba-sinov o'tkazamiz. Bu mobil ilova orqali o'quvchilar fan yuzasidan ma'lumotlarni, taqdimotlar, videodarslar, testlar kabi ma'lumotlarni darsgacha bo'lgan muddatda o'zlashtirishadi.


Olib borilgan tajriba-sinov kuzatishlari o'quv jarayoniga mobil ilova asosida o'qitish samarasi an'anaviy o'qitish metodikasi asosida tashkilq ilingandagi o'zlashtirishga nisbatan sezilarli darajada yaxshilanganligini ko'rsatadi.

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari jadvalda keltirilgan:

**Talabalarning tajriba-sinovdan keyingi davrdagi o'zlashtirishi**

Guruhsiga	O'zlashtirish ko'satkichi				Talabalar soni
	A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz	
Tajriba	17	55	26	-	96
Nazorat	9	25	46	-	80

Bu tanlanmalarga mos diagrammani quramiz:



Tajriba shuni ko'rsatdiki, o'quv jaraniyoniga mobil ilova yordamida aralash ta'limning Flipped learning modeli asosida tashkil etilgandarslar talabalarning ijodiy qobiliyatlarini va ijodiy fikrlashlarini o'stirdi, bilim, malaka va ko'nikmalarini mustahkamladi, talabalarda fanga bo'lgan qiziqishni oshirdi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, blended learning ya'ni aralashgan ta'lim o'quvchi, talaba hamda o'qituvchilar uchun ham juda qulay tizim hisoblanadi. LMS (Learning Management Systems) tizimi kamchiliklarini blended learning bartaraf etadi. Juhon miqyosida yuzaga kelgan pandemiya davrida ta'lim tizimini tashkil etishda aralashgan ta'limdan foydalanish muhim samara beradi.

Xullas, blended learningning flipped classroom modeli o'quvchi hamda talabalarini o'z faoliyatini tashkil qilishga o'rgatadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "Aralashtirilgan ta'limning 6 modeli". DreamBox.( 2014-11-25).
2. Martin, Margi , "Gibrid onlayn model: Yaxshi amaliyot" (2003).
3. www.e-darslar.net- O'zbek Internet foydalanuvchilari uchun onlayn, elektron darslar portali.
4. www.Intuit.ru- Rossiya Axborot Texnologiyalari Internet universitetining bepul o'qish kurslari
5. Strauss, Valeriya (2012 yil 22 sentyabr). "Aralashtirilgan ta'limdan uchta go'rquiv". Washington Post.
6. A.R. Maraximov, S.I.Raxmonqulova «Internet va undan foydalanish asoslari» Toshkent, 2001 yil.
7. M.Fayziyeva “Flipped learning va uning ta'lim jarayoniga amaliy tatbiqi” 2017. Pedagogika 1-son,

e-mail: [muattar.murodaliyeva@mail.ru](mailto:muattar.murodaliyeva@mail.ru)

Tel: +99897-413-98-11